

ANALYSIS OF HOMONYMY OF COMPOUND WORDS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

АНАЛИЗ ОМОНИМИИ СЛОЖНЫХ СЛОВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA QO'SHMA SO'ZLAR OMONIMIYASINING TAHLILI

Maxmudova Dildora Baxtiyor qizi

O'ZMU magistratura 2-bosqich

talabasi

Annotation: *This article discusses homonyms in English and Uzbek languages, their types, origins, homonyms in compound words and clearly explains them with examples. The topic of homonymy in compound words is considered quite complex, and at the same time, it is also interesting and thought-provoking. In the process of research, I was convinced that there is still not much work done on this topic in Uzbek. Homonymy of compound words are not fully explained with examples. But in fact that the Uzbek and English languages are rich in compound words, homonyms, and homonymous compound words.*

Key words: *homonyms, homographs, homophones, homonymy in compound words, acoustic, graphic, compound word.*

Аннотация: В данной статье рассматриваются омонимы в английском и узбекском языках, их виды, происхождение, омонимы в сложных словах и наглядно объясняются на примерах. Тема омонимии в сложных словах считается достаточно сложной, но в то же время интересной и заставляющей задуматься. В процессе исследования я убедился, что на узбекском языке еще не так много сделано по этой теме. Сложные слова омонимы не полностью объясняются примерами. Но на самом деле узбекский и английский языки богаты сложными словами, омонимами и омонимичными сложными словами.

Ключевые слова: омонимы, омографы, омофоны, омонимия в сложных словах, акустический, графический, сложное слово.

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida omonimlar, ularning turlari, kelib chiqishi, qo'shma so'zlardagi omonimlik haqida mulohazalar yuritildi va ularni misollar bilan yaqqol ochib berildi. Qo'shma so'zlarda omonimlik mavzusi anchagina murakkab hisoblanib, shu bilan birgalikda qiziqarli va tafakkurga undovchi hamdir. Tadqiqot jarayonida shunga amin bo'ldimki, bu mavzu bo'yicha hali o'zbek tilida juda ko'p ishlar amalga oshirilmagan ekan. Omonim qo'shma so'zlar misollar bilan to'liq ochib berilmagan ekan. Lekin aslida o'zbek va ingliz tili

qo'shma so'zlarga ham, omonimlarga ham, omonim qo'shma so'zlarga ham anchagina boy ekanligini ushbu maqolada yoritildi.

Kalit so'zlar: omonimlar, omograflar, omofonlar, qo'shma so'zlardagi omonimlik akustik, grafik, qo'shma so'z.

KIRISH

Zamonaviy ingliz tilida omonimiya hodisasi keng rivojlangan bo'lib, ushbu hodisa ko'plab tilshunoslarni uning muammolarini o'rganishga va ingliz tilidagi omonimlarni tasniflashga harakat qilishga jalb qiladi. Ammo, omonimiyani o'rganish uzoq vaqt davomida olib borilganiga qaramay, hali ham omonimlarning umumiy qabul qilingan ta'rifi va bu sohada o'rnatilgan terminologiya mavjud emas. Omonimiyani o'rganish chet tilini tushunish uchun juda muhimdir, chunki unda turli xil grammatik shakllar bir xil tovush yoki imloga ega bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, omonimlarni bilish ingliz tili amaliyotida zarur hisoblanib, ularning soni o'zbek tiliga qaraganda ancha yuqori. Omonimiya aloqa jarayonida ma'lum bir to'siq bo'ladi, chunki nutq kontekstiga aynan so'zning qaysi ma'nosi mos kelishini aniqlash zarur bo'ladi. Shuningdek, so'z-omonimlar so'zlovchi uchun muammo bo'lib, u o'z bayonotlarini bir ma'noda tushunilishi uchun so'zlarni tanlashga majbur bo'ladi.

MUXOKAMA VA NATIJALAR

Omonimlarni o'rganish so'zning tarixiy ma'nosini va til taraqqiyoti jarayonida uning o'zgarishlarini kuzatish nuqtai nazaridan nihoyatda qiziqarli. Zamonaviy ingliz tili boshqa tillarga qaraganda ancha ko'p omonimlar bilan tavsiflanadi. Turli tillarda omonimlar har doim o'ziga xos bo'lib, tasodifiy tabiati tufayli omonim guruhlar o'rtasida hech qanday o'xshashlik bo'lmaydi va bo'lishi ham mumkin emas. Omonimlarni lingvistik tavsiflashda ularni tasniflash muammosi muhim o'rin tutadi. Omonimlar quyidagi turlarga bo'linadi:

- 1) haqiqiy omonimlar: ot – hayvon, ot – nom. Ot – biror narsani uloq-tirimoq, ot – miltiq bilan otmoq;
- 2) aytilishi bir xil, lekin ma'nolari va yozilishi har xil bo'lgan omofonlar: qurt – hasharot, qurt – sut – qatqdan qilingan ozuqa; ruscha лук– piyoz, луг – o'tloq;
- 3) omograflar, ya'ni yozilishi bir xil, lekin talaffuzi va ma'nolari har xil bo'lgan so'zlar: son – raqam, son – odam jismidagi a'zo: inglizcha tear – ko'z yoshi, tear – yirtilmoq;
- 4) omoforma yoki leksik-grammatik omonimlar, ya'ni grammatik shakli to'g'ri keluvchi, biroq ma'nolari farqlanuvchi so'zlar: qarg'a – qushning turi, qarg'a – qarg'amoq fe'lining buyruq shakli, o't – o'simlik turi, o't – olov, o't – o'tmoq fe'lining buyruq shakli, ruscha moy – olmosh, moy – buyruq fe'li. Ingliz tili-da hour – soat, our – bizning, light – yoriq, light – yengil. Ba'zan bir xil yoziluvchi, biroq talaffuzida urg'uning o'rni bilan farqlanuvchi qarg'a (qush) – qarg'a ("qarg'amoq" fe'lining buyruq shakli) omoformalar bir yo'la omograflar bo'la oladi.

Ba'zi omonimlar ona tilidagi so'zning yozilishi yoki aytilishiga boshqa tildan kirgan so'zning yozilishi yoki aytilishining mos kelib qolishi natijasida hosil bo'ladi. Masalan, tok – elektr quvvati, tok – uzum daraxti, to'rt – son, tort – ozuqa (ko'pincha o'zbek tilida to'rt deb talaffuz etiladi). Ko'pincha omonimlar tildagi tovush o'zgarishlari natijasida hosil bo'ladi. Masalan, ingliz tilida piece – bo'lak, peace – tinchlik, weak – kuchsiz, week – hafta, tear – ko'z yoshi, tear – yirtmoq kabi omonimlar tarkibidagi unli tovushlarning o'zgarishi natijasida hosil bo'lgan. Ingliz tilida so'zlarning yozilishi va talaffuzi o'rtasida katta farq mavjud. Unda har xil yoziluvchi so'zlar ham bir xil talaffuz qilinishi mumkin: knight – farzin, night – kechasi, die – o'lmoq, dye – bo'yamoq kabi. Shu sababli bu tilda omonimlarning har xil turlari juda ko'p uchraydi. Ma'no jihatdan farqlanuvchi, biroq aytilishi va yozilishi bir xil bo'lgan so'zlar to'liq omonimlar deb ataladi. Agar so'zlarning faqat yozilishi yoki talaffuzi bir xil bo'lsa, ular to'liq bo'lmagan omonimlar deyiladi. Omonimlar haqida ancha ma'lumotga ega bo'ldik. Ana endi qo'shma so'zlardagi omonimlar haqida mulohaza yuritsak.

Qo'shma so'zlarda omonimlik mavzusi anchagina murakkab hisoblanib, shu bilan birgalikda qiziqarli va tafakkurga undovchi hamdir. Chunki avvalo biz o'raginishimiz kerak bo'lgan so'z ikkita mustaqil ma'nodan tashkil topgan bo'lishi va shu bilan birgalikda ikki so'z birikkan, yaxlit holatida omonim ya'ni shakldosh bo'la olishi zarur. Tadqiqot jarayonida shunga amin bo'ldimki, bu mavzu bo'yicha hali o'zbek tilida juda ko'p ishlar amalga oshirilmagan ekan. Omonim qo'shma so'zlar misollar bilan to'liq ochib berilmagan ekan. Lekin aslida o'zbek tili ham ingliz tili ham qo'shma so'zlarga ham, omonimlarga ham, omonim qo'shma so'zlarga ham anchagina boy ekan. Izlanishlar davomida ingliz va o'zbek tillaridagi ba'zi omonim qo'shma so'zlarni topdim. Hozir ularni birma-bir misollar yordamida ma'nolari bilan ko'rib chiqamiz.

INGLIZ TILIDA

1. Playhouse– 1) jonli drama teatri; 2) bolalar o'yingohi; 3) bolalar o'yinchoq uyi yoki qo'g'irchoq uyi;
2. Notebook – 1) ko'tarib yurishga mo'ljallangan kompyuter turi; 2) daftar
3. Aftershock -1) sekinroq yer qimirlashi; 2) yoqimsiz hissiyot;
4. Alternative- 1) munosib tanlov; 2) muqobil;
5. Armband- 1) qo'lga taqiladigan tasma; 2) suzishda ishlatiladigan qo'l baloni;
6. Back-to-back- 1) ketma-ket; 2) uy qurulishi turi;
7. Bearskin- 1) ayiq terisi; 2) askarlar kiyadigan uzun qora patli shlyapa;
8. Bellyache- 1) qorin og'rig'i; 2) shikoyat qilmoq;
9. Blackmail- 1) tahdid qilmoq; 2) tahdid;
10. Bookmark- 1)xatcho'p; 2)internetdagi ma'lumotlarni oson topish uchun belgilab ketish;
11. Legless- 1) oyoqsiz; 2) alkash;
12. Bottomless-1) nihoyasiz; 2) tubsiz;

13. Bread and butter- 1) asosiy daromad; 2) juda muhim;
14. Brother-in-law- 1) qayinuka, qayinaka; 2) pochcha;
15. Bottonhole- 1) tugma qadaladigan teshik; 2)kiyimga taqiladigan gul;
3)shilqimlik qilmoq;
16. Cock-eyed- 1) ahmoqona; 2) vijdotsiz;
- O'zbek tilida:
1. Qorako'z – 1) qizlar ismi; 2) baliq turi; 3) qishloq nomi;
2. Bo'tako'z – 1)gul; 2) qizlar ismi; 3) ko'zning tashqi ko'rinishi;
3. Baliqko'z – 1) o'simlik nomi; 2) ko'zi chaqchaygan odamga nisbatan ham shu so'z ishlatiladi;
4. Sotiboldi – 1) erkaklar ismi; 2) sotib olmoq fe'lining o'tgan zamondagi uchinchi shaxs birlikdagi shakli;
5. Beshariq – 1) joy nomi; 2) beshta ariq;
6. Beshyog'och – 1) joy nomi; 2) beshta yog'och;
7. Gulqand – 1) o'rta pishar pomidor navi; 2) gulbarg bilan shakardan qilinadigan shirinlik;
8. Qirqog'ayni – 1) gul nomi; 2) joy nomi; 3) qirq og'ayni;

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, qo'shma so'zlardagi omonimlik ingliz tilida ham, o'zbek tilida ham keng o'rganilmagan. Shuning uchun bu mavzu haqida ma'lumot topish biroz qiyinchilik tug'dirdi. Shunga qaramasdan ikki tilda ham bir paytning o'zida ham qo'shma so'z, ham omonim bo'la oladigan so'zlar talaygina ekanligini lug'atlarni ko'rib, o'rganib chiqish davomida amin bo'ldik va buni tepada berilgan misollar yordamida isbotlashga harakat qildik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.I. Smirnitskiy. (1977). Ingliz tilidagi omonimlar M. 57-59-betlar.
2. Michael Rundell. Macmillan English Dictionary for Advanced Learners of American English. – U.K.Foreign Language Teaching and Research Press. 2007. – P.1658.
3. Юлдашев А.Г. Идиоматик қўшма сўзларнинг лингвокогнитив аспекти (инглиз ва ўзбек тиллари мисолида): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 2017. – 46 с.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati.